Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318324

materiallar to'plami

KORXONADA YONG'INDAN HIMOYA QILISH CHORALARI.

Qobulov Abdumutalib Shuxrat o'g'li
Andijon mahinasozlik instituti, "Transport va logistika" fakulteti, "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" o'quv yo'nalishi, 4-kurs,30-20-guruhi talabasi.

Annotatsiya

Ishlab chiqarish korxonalarida sodir bo'layotgan yong'inlarni sabablarini tahlil qilish asosida ularni oldini olish bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar ishglab chiqilgan.

Kalit so'zlar*: yong'in, yonuvchan muhit, yonish manbai, oksidlovchi, xavfsizlik tizimi, maxsus saqlash rezervuarlari, yong'inni o'chirishning avtomatik tizimi.*

Korxonaning yong'in xavfini baholash uchun uchta komponentning mavjudligi nuqtai nazaridan yong'in paydo bo'lishini tahlil qilishga yondashuvni aks ettiruvchi "uchburchak" prinsipi qo'llaniladi : yonuvchan muhit - yonish manbai - oksidlovchi.

Obyektlarida yong'in holatlarining paydo bo'lishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun, shuningdek, yonuvchan muhitni shakllanish sharoitlarini va o'z-o'zidan yonishning paydo bo'lishi shart-sharoitlarini baholash kerak. Bundan tashqari potentsial yonish manbalarining mavjudligi, yong'inning boshqa obyektlarga tarqalishiga sabab bo'luvchi omillar, yonuvchan muhit va oksidlovchi moddaning fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish va boshqalar ham muhim rol o'ynaydi [1].

Ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik tizimlarining yong'in xavfini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish muhimdir:

1.Ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan moddalarning asosiy fizik, kimyoviy va yong'inga xavfli xossalari;

2.Qurilmaning ishlash rejimlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish uskunasi ichida ishlatiladigan moddalarning yong'in va portlash xavfi ko'rsatkichlarining mavjudligi;

3.Yonuvchan moddalarning ishlab chiqarish uskunalari, maxsus saqlash rezervuarlari, quvurlar va boshqalar tashqarisiga chiqib ketish ehtimolini aniqlash, shuningdek, bunday vaziyat yuzaga kelganda oqibatlarini tahlil qilish;

4.Yonishning mumkin bo'lgan sabablarini, shuningdek ularning yonuvchan moddalar bilan o'zaro ta'sir qilish ehtimoli foizini aniqlash;

5.Yong'inning mumkin bo'lgan sabablarini, shuningdek, uni bartaraf etish usullarini aniqlash;

6.Odamlar va ishlab chiqarish obyektlarini yong'indan himoya qilish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Tashkiliy-texnik chora-tadbirlar va amaldagi xavfsizlik tizimi bunday tizimlarning har bir bosqichi uchun iqtisodiy mezonlarni hisobga olgan holda odamlarning salomatligi va hayotini, shuningdek, moddiy-texnikaviy boyliklarning xavfsizligini saqlashga qaratilgan(yani: - ilmiy ishlanmalar; - loyihalash; - qurilish; - baholash; - ekspluatatsiya).

Yong'in xavfsizligi tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yong'in ehtimolini bartaraf etish; odamlar salomatligi va hayotining xavfsizligini ta'minlash; moddiy-texnik boyliklarning saqlanishi(xavfsizligi)ni ta'minlash [2].

Published: 10.11.2023

Cite this article: Qobulov Abdumutalib Shuxrat o'g'li (2023). Korxonada yong'indan himoya qilish choralari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318324

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Yong'in xavfsizligi tizimi - bu yong'in tahdidlari va uning oqibatlarining odamlarga ta'sirining oldini olishga, shuningdek undan kelib chiqadigan moddiy zararni minimallashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar va texnik vositalar majmui.

Masalan, neft va gaz kimyosining tereftalik kislota va polietilentereftalat ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalarida yong'in va portlash xavfining oshishiga ta'sir qiluvchi omillarga alohida e’tibor qaratiladi.

Bularga quyidagilardir :

- neft-kimyo mahsulotlarining yuqori konsentratsiyasi, ularning yong'inga, portlashlarga moyilligi, bu esa atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi;

- moddiy va shaxsiy tarkibni yo'qotishlariga olib keladigan potentsial xavflarning yuqori darajasi;

– tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari tizimini takomillashtirishga nisbatan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishning tezroq o‘sishi tendentsiyasi;

– neft-kimyo mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida olinadigan qayta ishlanishi qiyin bo‘lgan sanoat chiqindilarining mavjudligi;

- xavfsizlik tizimini takomillashtirishsiz texnologik jarayonlarni murakkablashtirish bilan birga polietilentereftalatning har xil turlarini ishlab chiqarish;

- tereftalik kislota va polietilentereftalat ishlab chiqarish korxonalarining juda yuqori darajadagi energiya sarflashi[3].

Masalan "Farg‘onaazot" AJ odamlarni yong'in xavfi, shu jumladan ularning ikkilamchi ta’siriga duch kelishining oldini olishga qaratilgan yong'in xavfsizligi tizimiga ega.

Ushbu tizim yordamida odamlarning yong'in xavfsizligini ta'minlashning zarur darajasi yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablarini bajarish bilan ta'minlanadi.

Odamlarning xavfsizligini ta'minlash va loyihalashtirilgan xonada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'indan zararni kamaytirish uchun quyidagi muhandislik tizimlaridan foydalanish ta'minlanadi :

- yong'in sodir bo'lganda odamlarni ogohlantirish va evakuatsiya qilishni boshqarish tizimlari;

-yong‘inni o‘chirishning avtomatik tizimi;

-tashqi va ichki yong'inga qarshi suv ta'minoti, shuningdek odamlarga xavfli yong'in omillari ta'sirining oldini olishga va undan moddiy zararni cheklashga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar majmui.

Elektr qurilmalari va chaqmoqlardan himoya qilish tizimi, ventilyatsiya va isitish tizimlarini loyihalash yong'in xavfsizligi sohasidagi amaldagi meyoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilgan.

Yong‘idan muhofaza tizimi elementlari bazasini bog'lash ulardan kompleks foydalanishni hisobga olgan holda ta'minlangan.

Bunday tizimlardan foydalanish va meyoriy hujjatlar talablariga doimo rioya etish, moddiy va insoniy yo‘qotishlarni minimallashtirish, shuningdek, texnik jihozlar holatini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi[4].

***Ilmiy rahbar** : Xodjakuloiv M.N.*

“Mehnat muhofazasi” kafedrasi dotsenti v.b.

Adabiyotlar

1.Бакиров И.К. Разработка метода оценки пожарных рисков твердых горючих веществ и материалов на производственных и складских объектах. – Пожаровзрывобезопасность. – 2017. – Т. 20. – №9.– С. 35-41.
2.Галеев А.Д., Поникаров С.И. Анализ риска аварий на опасных производственных объектах. Учебное пособие. – Казань: «КНИТУ», 2017. – 152 с.
3.Рождение великана к 20-тию СИБУРа. – Текст научной статьи. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/rozhdenie-velikana-k-20-letiyu-sibura.
4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 649-son qarori.